




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

02 sentyabr, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 28 avgust 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,23% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,228% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,537% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich 9,576% darajaga oshdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,117% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,135% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,285% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,273% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,351% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,339% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,65% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich o'zgarishsiz— 3,65 darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,593% (3 oylik) va 2,77% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,772% (6 oylik) va 2,593% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 891,2 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 351,9 million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 818 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib 11 820 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 1,10% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




02.09.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Anor bank da* qayd etilgan – 11 880 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 11 875 – 11 865 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *NBU bankda* qayd etilgan – 11 810 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 11 800 – 11 750 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



USD/RUB: kursning sezilarli oshishi

2026-yil 24–28-avgust kunlari davomida USD/RUB kursi 84,1 rubldan 86,3 rublgacha oshdi. Kursning ko'tarilishi rublning AQSh dollariga nisbatan zaiflashganini ko'rsatadi. Hafta boshida kurs dinamikasi nisbatan barqaror bo'lgan bo'lsa-da, 26-avgustdan boshlab o'sish sur'ati kuchaydi. Eng sezilarli o'sish 27-avgust kuni qayd etildi. Davr oxiriga kelib kurs 86,3 rublni tashkil etib, ko'rib chiqilayotgan haftadagi eng yuqori darajaga yetdi. USD/RUB kursining qisqa muddatli dinamikasi o'sish yo'nalishida bo'lib, bu rublga nisbatan bosim saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.



RUB/CNY: kursning sezilarli oshishi

2026-yil 24–28-avgust kunlari davomida RUB/CNY kursi 11,8 rubldan 12,5 rublgacha oshdi. Kursning ko'tarilishi rublning Xitoy yuaniga nisbatan zaiflashganini anglatadi. Hafta boshida o'zgarishlar nisbatan kichik bo'lgan bo'lsa, 26-avgustdan boshlab o'sish sur'ati tezlashdi. Eng sezilarli o'sish 27–28-avgust kunlari kuzatilib, kurs 12,1 rubldan 12,5 rublgacha ko'tarildi. Davr oxirida ko'rsatkich ko'rib chiqilayotgan haftadagi eng yuqori darajaga yetdi. RUB/CNY kursining qisqa muddatli dinamikasi o'sish yo'nalishida bo'lib, bu rublning yuaniga nisbatan zaiflashganini ko'rsatadi.




EUR/USD: kursning mo'tadil pasayishi


2026-yil 24–28-avgust kunlari davomida EUR/USD kursi 1,1687 dollardan 1,1657 dollargacha pasaydi. Kursning pasayishi yevroning AQSh dollariga nisbatan mo'tadil darajada zaiflashganini ko'rsatadi. Hafta boshida ko'rsatkich bosqichma-bosqich pasayib, bu tendensiya 26-avgustgacha davom etdi. 27-avgust kuni kurs deyarli o'zgarmadi, biroq 28-avgust kuni yana pasaydi. Natijada davr oxirida ko'rsatkich ko'rib chiqilayotgan haftadagi eng past darajaga tushdi. EUR/USD kursining qisqa muddatli dinamikasi pasayish yo'nalishida bo'lib, bu AQSh dollarining yevroga nisbatan mo'tadil mustahkamlanganini ko'rsatadi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlari dinamikasi
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida)



Brent nefti narxlari dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlari dinamikasi
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



Oltin: oy oxiriga kelib narxning pasayishi



2026-yil 24–28-avgust kunlari davomida oltin narxi 4651,3 dan 4452,7 gacha pasaydi. Hafta boshida narx nisbatan barqaror bo'lib, 25-avgust kuni 4656,6 darajasiga yetdi. Keyingi kunlarda ko'rsatkich bosqichma-bosqich pasayib bordi, eng sezilarli pasayish esa 28-avgust kuni kuzatildi. Natijada ko'rib chiqilayotgan davr oxirida oltin narxi hafta davomida qayd etilgan eng past darajaga tushdi. Umuman olganda, oy oxiriga kelib oltin bozorida pasayish tendensiyasi kuchaydi. Qisqa muddatli trend pasayish yo'nalishida bo'lib, bu qimmatbaho metall qiymatining kamayishini ko'rsatadi.

Brent: narxning sezilarli pasayishi



2026-yil 24–28-avgust kunlari davomida Brent nefti narxi bir barrel uchun 92,17 dollardan 89,31 dollargacha pasaydi. Hafta boshida narx keskin tushganidan so'ng, 25–27-avgust kunlari 87,84–89,7 dollar oralig'ida o'zgarib turdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda eng past ko'rsatkich 26-avgust kuni qayd etilib, bir barrel uchun 87,84 dollarni tashkil etdi. 28-avgustga kelib narx qisman tiklanib, 89,31 dollargacha ko'tarildi. Umuman olganda, hafta oxiridagi qisman tiklanishga qaramay, Brent narxi davr boshidagi darajadan pastligicha qoldi. Brent neftining qisqa muddatli dinamikasi pasayish yo'nalishida baholanib, narxlarning keyingi harakatini monitoring qilish tavsiya etiladi.

TTF: narxning mo'tadil pasayishi



2026-yil 24–28-avgust kunlari davomida TTF gazining narxi 79,6 dan 77,2 gacha pasaydi. Hafta boshida narx pasayib, 26-avgust kuni 76,6 darajasiga tushdi, shundan so'ng 27-avgust kuni 79,0 gacha tiklandi. Biroq 28-avgust kuni ko'rsatkich yana pasayib, 77,2 ni tashkil etdi. Qisqa muddatli tiklanishga qaramay, narx davr boshidagi darajadan pastligicha qoldi. Umuman olganda, hafta davomida narx dinamikasi yuqori o'zgaruvchanlik va mo'tadil pasayish bilan tavsiflandi. TTF narxining qisqa muddatli tendensiyasi pasayish yo'nalishida baholanadi.